# XALQ DEPUTATLARI DO‘STLIK TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-47-137-3-47-K/23 Do‘stlik tuman hokimligi

## Do‘stlik tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25 dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2023 yil 27-dekabrdagi 01-20-08-01-33/423-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Do‘stlik tumani Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25 dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Do‘stlik tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 99 783 245,0 ming so‘m, xarajatlari 126 439 828,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 44 497 183,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Do‘stlik tumani daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda respublika budjetidan tuman mahalliy budjetiga o‘tkaziladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori tasdiqlansin.

6. Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

7. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari rejasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2024-yil uchun tumanning tuman budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1,0 foiz miqdorida belgilansin.

- Tuman budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

- Do‘stlik tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetining zaxira jamg‘arma miqdoriga aniqlashtirish kiritilmaydi.

- Tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasidan mablag‘lar ajratilgan taqdirda ushbu qarorga o‘zgartirish kiritilmaydi.

10. 2024-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqasida turgan budjet mablag‘ining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 392 000,0 ming so‘mni tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqasida turgan budjet mablag‘ining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar er uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 $m^2$ uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

12. 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan

to‘lanadigan soliq mustasno;

b) Viloyat budjetiga quyidagilar to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- aylanmadan olinadigan soliq;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

- ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

- davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

v) Tuman budjetiga quyidagi ulushlarda:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i Do‘stlik tumaniga 90 foizi o‘tkaziladi.

13. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar viloyat budjetida qoldiriladi.

14. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Latifov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Daniyarov), tuman soliq inspeksiyasi (M.Tursunmurodov) bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (M.Tursunmurodov), O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

16. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (J.Karimov) tuman soliq inspeksiyasi (M.Tursunmurodov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha amaliy chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.b3

17. Tuman mahalla fuqarolar yig‘inlari ettiligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Tuman irrigatsiya bo‘limi (Sh.Qurolov) va tuman soliq inspeksiyasi (M.Tursunmurodov) tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv xajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol xajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq xisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

- Bunda, qishloq xo‘jaligi karxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari xajmlari va ushbu xajmlar bo‘yicha xisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

19. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

- mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

- Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan

ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

- mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

20. Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi biroq, 6,0 mlrd.so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda rejalashtirish hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

- Xalq deputatlari tuman kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari, budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

- mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Latifov)ga:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

22. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

23. Mazkur qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Do'stlik tuman Kengashi raisi**

**SH.Darvishev**

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-47-137-3-47-K/23-son qaroriga
1-ilova

# Do‘stlik tuman mahalliy budjetining daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

**Ming.so‘mda**

| T/R | Daromad turlari | Jami |
|---|---|---|
| **JAMI** | | **99 783 245,0** |
| 1 | YATT uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 788 000,0 |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 3 500 000,0 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 4 400 000,0 |
| 4 | Suv rusurslaridan foydalanganlik uchun solig‘i | 5 967 000,0 |
| 5 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 17 000,0 |
| 6 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 5 581 000,0 |
| 7 | Korxonalar aylanmasidan soliq | 5 072 000,0 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 31 546 000,0 |
| 9 | Aksiz solig‘i, jami | 6 094 000,0 |
| | *shu jumladan:* | |
| | *- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq* | 6 094 000,0 |
| 10 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 2 410 000,0 |
| 11 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 12 405 000,0 |
| 12 | Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | |
| 13 | Yig‘imlar | 3 745 000,0 |
| 14 | Davlat boji | 3 162 000,0 |
| 15 | Jarimalar | 2 145 000,0 |
| 16 | Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad | 62 000,0 |
| 17 | Xususiylashtirishdan tushum | 1 000 000,0 |
| 18 | Boshqalar | |
| 19 | Respublika budjetidan o‘tkazib beriladigan daromadlar | **11 889 245,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | Aroqdan aksiz solig‘i (shu jumladan pivo) | 5 153 600,0 |
| | Mobil aloqa xizmatidan aksiz solig‘i | 2 075 881,0 |

| | | |
|---|---|---|
| | Tamaki aksiz solig‘i | 4 659 764,0 |

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-47-137-3-47-K/23-son qaroriga
2-ilova

# Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

## Foiz xisobida

| T/R | Shaxar va tumanlar nomi | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Yuridik shaxs-lardan olina-digan foyda solig‘i | Xususiylashtirish-dan tushum (davlar obektlarini sotishdan tushum) | Jismo-niy shaxslar er solig‘i | Jismo-niy shaxslar mol-mulk solig‘i | Ijara to‘lovi | Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya-sidan soliq | Yuridik shaxs-lar yer solig‘i | Suv resurs-laridan foyda-lan-ganlik uchun soliq | Noruda qurilish materiallari uchun yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Do‘stlik tumani | 90 | 100 | 50 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-47-137-3-47-K/23-son qaroriga
3-ilova

# Do‘stlik tuman mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

**Ming.so‘mda**

| Hudud nomi | Jami daromadlar | shundan | | | Mahalliy budjet xarajatlari |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Mahalliy budjet daromadlar | O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobiль, tamaki va alkogolь) | Tartibga soluvchi transfert miqdori | |
| Do‘stlik tumani | 126 439 828,0 | 70 053 400,0 | 11 889 245,0 | 44 497 183,0 | 126 439 828,0 |

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-47-137-3-47-K/23-son qaroriga
4-ilova

# Tuman mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari rejasi

**Ming.so‘mda**

| Hudud nomi | Jami daromad | shundan | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol) | Soliq rejasi | shundan | |
| | | | | Tuman mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori | Viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori |
| Do‘stlik tumani | 99 783 245,0 | 11 889 245,0 | 87 894 000,0 | 70 053 400,0 | 17 840 600,0 |

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-47-137-3-47-K/23-son qaroriga
5-ilova

**5-ilova**

# 2024-yilgi Do‘stlik tumani mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

**ming so‘mda**

| № | Ko‘rsatkichlar | Tuman budjeti |
|---|---|---|
| **Xarajatlar miqdori, Jami** | | **126 439 828,0** |
| | ***shu jumladan:*** | |
| | **joriy xarajatlar** | **126 439 828,0** |
| | **ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar** | |
| | | |
| **1** | **Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi** | **24 137 265,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 24 137 265,0 |
| | *Maktabgacha ta’lim muassasalari* | 14 744 717,0 |
| | *Umumuiy o‘rta ta’lim maktablari, "Barkamol avlod" bolalar markazi va xalq ta’limi bo‘limi* | 9 392 548,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **2** | **Sog‘liqni saqlash bo‘limi** | **52 007 057,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 52 007 057,0 |
| | shundan: | |
| | *Sog‘liqni saqlash muassasalarini saqlash xarajatlari* | 52 007 057,0 |
| | *Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar xarajatlari* | |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **3** | **Madaniyat bo‘limi** | **3 032 550,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 3 032 550,0 |
| | *shundan:* | |
| | *Madaniyat bo‘limini saqlash xarajatlari* | 123 562,0 |
| | *Madaniyat markazini saqlash xarajatlari* | 1 201 017,0 |
| | *Madaniyat bo‘limi (falklyor) xarajatlari* | 195 529,0 |
| | *Musiqa va san’at maktabini saqlash xarajatlari* | 1 512 442,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **4** | **Yoshlar siyosati va sport bo‘limi** | **4 560 378,0** |

| | | |
|---|---|---|
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 4 560 378,0 |
| | shundan: | |
| | *Bolalar-o‘smirlar sport maktabini saqlash xarajatlari* | 2 926 669,0 |
| | *Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi saqlash xarajatlari* | 1 633 709,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **5** | **Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi** | **2 950 703,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 2 950 703,0 |
| | *Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi saqlash xarajatlari* | 2 145 861,0 |
| | *Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi saqlash xarajatlari* | 804 842,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **6** | **Qishloq xo‘jaligi bo‘limi** | **2 167 619,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 2 167 619,0 |
| | shundan: | |
| | *Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi va xayvon kasalliklar tashxisi va oziq ovqat xavfsizligi davlat markazi saqlash xarajatlari* | 1 545 689,0 |
| | *Fermer xo’jaliklarida buxgalteriya xisobi va xisobotini yuritish markazini saqlash xarajatlari* | 621 930,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **7** | **Irrigatsiya bo‘limi** | **580 847,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 580 847,0 |
| | *Irrigatsiya bo‘limi saqlash xarajatlari* | 580 847,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **8** | **Iqtisodiyot va moliya bo‘limi** | **2 235 337,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 2 235 337,0 |
| | shundan: | |
| | *Iqtisodiyot va moliya bo‘limi saqlash xarajatlari* | 2 235 337,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **9** | **Davlat soliq inseksiyasi bo‘limi** | **3 102 274,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 3 102 274,0 |
| | *Tuman soliq inseksiyasi bo‘limi saqlash harajatlari* | 3 102 274,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **10** | **Davlat hokimiyat organlari** | **19 664 477,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 19 664 477,0 |

| | | |
|---|---|---|
| | shundan: | |
| | *Tuman xokimliklarini saqlash harajatlari* | 2 857 806,0 |
| | *Halq qabulxonasini saqlash harajatlari* | 57 866,0 |
| | *Zaxira jamg‘armasi* | 1 124 961,0 |
| | *Axbarot kutubxona markazini saqlash harajatlari* | 617 945,0 |
| | *Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi* | 12 818 798,0 |
| | *Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyatini saqlash harajatlari* | 269 415,0 |
| | *Hokim yordamchilarini saqlash harajatlari* | 1 273 787,0 |
| | *Mahalla byudjeti* | 584 522,0 |
| | *Ijtimoiy ko‘nikma markazi* | 59 377,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **11** | **Obodonlashtirish boshqarmasi** | **12 001 321,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | **joriy xarajatlar** | 12 001 321,0 |
| | *Tuman Obodonlashtirish boshqarmasini saqlash harajatlari* | 8 001 321,0 |
| | *Jizzax mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi DUK* | 4 000 000,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-47-137-3-47-K/23-son qaroriga
6-ilova

# Do‘stlik tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

**ming so‘mda**

| T/r | Hudud nomi | Miqdor |
|---|---|---|
| 1 | Do‘stlik tumani | **392 000,0** |

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-47-137-3-47-K/23-son qaroriga
7-ilova

# Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

| T/r | Hudud nomi | Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha) | Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (mln.so‘mda) |
|---|---|---|---|
| 1 | A.Navoiy MFY | 1,25 | 51,30 |
| 2 | Bog‘zor MFY | 0,84 | 34,47 |
| 3 | Bunyodkor MFY | 0,84 | 34,47 |
| 4 | G‘.G‘ulom MFY | 1,25 | 51,30 |
| 5 | Qaxramon MFY | 0,84 | 34,47 |
| 6 | Manas MFY | 0,84 | 34,47 |
| 7 | Mevazor MFY | 0,84 | 34,47 |
| 8 | Navro‘z MFY | 0,84 | 34,47 |
| 9 | Oltin vodiy MFY | 0,84 | 34,47 |
| 10 | Sanoatchilar MFY | 1,25 | 51,30 |
| 11 | Saritepa MFY | 0,84 | 34,47 |
| 12 | Chinobod MFY | 1,25 | 51,30 |

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-47-137-3-47-K/23-son qaroriga
8-ilova

# Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

| T/r | Hudud nomi | Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha) | Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (so‘mda) |
|---|---|---|---|
| 1 | A.Navoiy MFY | 0,75 | 328,8 |
| 2 | Bog‘zor MFY | 0,72 | 315,65 |
| 3 | Bunyodkor MFY | 0,7 | 306,88 |
| 4 | G‘.G‘ulom MFY | 0,75 | 328,8 |
| 5 | Qaxramon MFY | 0,7 | 306,88 |
| 6 | Manas MFY | 0,7 | 306,88 |
| 7 | Mevazor MFY | 0,7 | 306,88 |
| 8 | Navro‘z MFY | 0,7 | 306,88 |
| 9 | Oltin vodiy MFY | 0,7 | 306,88 |
| 10 | Sanoatchilar MFY | 0,7 | 306,88 |
| 11 | Saritepa MFY | 0,7 | 306,88 |
| 12 | Chinobod MFY | 0,7 | 306,88 |